



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil 28-noyabr

TOSHKENT-2023

UDK 04
KBK 93
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

Mas’ul muharrir:

Xudoyev G‘anijon – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tahrir kengashi a‘zolari:

Turg‘unova Nasiba – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Yakubov Zohidjon – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

Xudoyqulova Nilufar – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.

4-SHO‘BA

TA‘LIM TIZIMIDA MILLIY MUSIQA SAN‘ATINING O‘QITILISHI

O‘ZBEK MUSIQIY MEROSI TASARRUFINING TA‘LIMIY HAMDA IJTIMOIY MASALALARI

Ahmad BAHRIYEV,
*O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Musiqiy pedagogika”
kafedrasi professori v.b., pedagogika fanlari doktori.*

Jahon mamlakatlari maxsus va umumiy musiqa ta‘limida kechayotgan jarayonlar global dunyo sharoitida har bir mamlakatda o‘ziga xos tarzda namoyon etilishiga qaramasdan, ularning o‘zaro bir-biriga ta‘siri muhim ijtimoiy pedagogik masala hisoblanadi. Shu jihatdan, o‘zbek musiqa merosi ham o‘zining qadim o‘tmishi, lad va ritm jihatidan nihoyatda rang-barangligi bilan nafaqat mintaqamizda, balki jahon musiqasida o‘zining alohida o‘rniga egadir.

“Yangi O‘zbekiston - 2030” strategiyasida, - Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalash...”, - alohida ta‘kidlangan [1].

“Yangi O‘zbekiston” sharoitida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub ijtimoiy islohotlar mamlakatimiz aholisining turmush farovonligi oshishiga, natijada o‘sib kelayotgan yosh avlod vakillari ongida milliy madaniyat va san‘at mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojning ham ortishiga olib keldi. Muntazam tarzda tashkil etilayotgan turli festivallar, madaniyat va san‘at bayramlari, zamonaviy musiqa va maqom yo‘nalishidagi ko‘rik-tanlovlar yoshlar ongida vatanga muhabbat tuyg‘ularini singdirishda muhim omil bo‘lmoqda. Bu esa musiqa yo‘nalishlarida tayyorlanayotgan mutaxassislarning kasbiy salohiyatiga bo‘lgan talabning ortishiga olib keldi.

Maxsus musiqa ta‘limi muassasalari, xususan, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi bakalavriat hamda magistratura bosqichida musiqiy-pedagogik yo‘nalishdagi fanlarni o‘qitishda innovatsion-pedagogik texnologiyalar, “Sibelius” nota matni muharriri, “Nuendo_10.3.0” audio va video muharriri maxsus kompyuter dasturlari, interaktiv ekran, multimedia jamlanmasi keng qo‘llanmoqda, o‘quv mashg‘ulotlari to‘la HEMIS axborot tizimi orqali boshqarilmoqda. Bularning barchasi talabalarning fanlar bo‘yicha egallayotgan bilim va ko‘nikmalari hajmi oshishiga, darslarning sifati va natijadorligi yuksalishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunda o‘qituvchining talabaga ob‘yektiv bilimlarni yetkazishga qaratilgan harakati traektoriyasi o‘zgardi. Uning asosiy vazifasi o‘quvchi (talaba)larni yangi bilimlarni o‘zlashtirishda tashabbuskorlik va mustaqillik ko‘rsatishga undash, bu bilimlarni turli muammoli vazifalarni hal qilishda qo‘llash

maqsadida izlash va topish yo‘llarini ko‘rsatishdan iborat. Ta’limda ilmiy-musiqiy muammolarga yechim topish bosqichida o‘qituvchi talabalarni gipotezalarni ilgari surishga va sinab ko‘rishga undaydi va shu orqali yangi bilimlarni “kashf” etishini ta’minlaydi.

Uzluksiz musiqa ta’limida interfaol usullar orqali o‘quvchi-talabalarga innovatsion tafakkurni, fan sohasidagi yangiliklarga bo‘lgan ichki ehtiyoj ustanovkasini shakllantirish, jamoaviy, kichik guruhlar va individual tarzda tashkil etiladigan o‘quv mashg‘ulotlarida har bir o‘quvchi (talaba) bilan individuallashtirilgan ta’lim formatida ishlash orqali ularda bilish qobiliyatlarini, kreativ tafakkurni shakllantirish dolzarb musiqiy-pedagogik masalaga aylandi.

Jumladan, Z.Isoqov o‘z tadqiqotida ta’kidlashicha, bugungi kungacha yetib kelgan noyob musiqa durdonalari asosan yozma manbalarda ifodalangan bo‘lib, “Mo‘tabar musiqiy merosimiz qadimiy namunalari o‘ziga xos barqaror asos – matn tarzida millat xotirasida yashab kelmoqda. Bu meros o‘zining yuksak badiiy hamda ijtimoiy ahamiyati tufayli avloddan-avlodga o‘tib, umumxalq mulki va ma’naviy ozuqasiga aylanib ketgan” [2, 9-11].

Qadim Turonzaminda, shuningdek, Sharqiy va Janubiy Sharqiy Osiyoning ko‘pgina mamlakatlarida musiqa tinglash tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanalgan hamda u o‘rganish zarur hisoblangan fanlar qatoriga kiritilgan. Bu esa musiqa tinglash madaniyatining uzoq moziydan turli jamiyatlar ma’naviy hayotida o‘rin tutgan o‘ziga xos tarbiya vositasi sifatidagi dolzarb ahamiyatidan guvohlik beradi.

R.T.Primov o‘z tadqiqotida “Temuriylar davrida yashab ijod etgan buyuk alloma Abdurahmon Jomiy “Risolai musiqiy” asarida musiqa ta’limoti va uning inson ma’naviy kamolotida tutgan o‘rni haqida mangulikka daxldor fikrlar bildirganligini aytib o‘tgan [3]. Musiqa nazariyasi va amaliyotini chuqur anglagan Jomiy musiqadan tarbiyaning muhim vositasi sifatida foydalanish zarurligini keng targ‘ib etgan. Musiqa borasida allomalar bildirgan fikrlar albatta mumtoz va xalq musiqasiga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrda qabul qilingan “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [4] va 2023 yil 30 avgustda qabul qilingan “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish va soha vakillari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash choralari to‘g‘risida”gi [5] qarorlarida xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lgan milliy maqom san’atini keng targ‘ib etish, uning o‘ziga xos ijro maktablari va an’analarini yangi bosqichda ravnaq toptirish hamda xalqaro nufuzini oshirish alohida ta’kidlangan. O‘tgan davrda mazkur yo‘nalishda keng qamrovli ishlar amalga oshirilganiga qaramasdan mumtoz musiqa, maqom musiqasi targ‘iboti talab darajasida amalga oshirildi, deb ayta olmaymiz.

Taklif: aholining shinavanda qatlamini qamrab olish imkoniyatlari nihoyatda kengligi sababli radio, televideniye va internet tarmoqlarida mumtoz musiqamiz namunalarini aholi va yoshlar ko‘p tinglaydigan, tomosha qiladigan qulay vaqtlarda efirga uzatishni kuchaytirish zarur. Shundagina mumtoz musiqaning imkoniyatlaridan yanada keng foydalana olamiz.

1. “Yangi O‘zbekiston - 2030” strategiyasi. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
2. Isoqov Z. O‘zbekistonda san‘at va madaniyatga e‘tibor – ijtimoiy islohotlarning bosh mezoni sifatida. O‘zDSMI xabarlar, 2019/3 (11). – B.9-11.
3. Primov R.T. Shaxs kamolotida ajdodlarimiz musiqa merosining o‘rni. Maqola. <http://jurnal.org/articles/2015/ped67.html>
4. “O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2017-yil 17-noyabr. <https://lex.uz/docs/-3581613>
5. “O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish va soha vakillari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash choralari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2023-yil 30-avgust. <https://lex.uz/docs/-3581613>.

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA BUXORO BOLALAR FOLKLOR QO‘SHIQLARINI O‘RGATISH

To‘xtasin RAJABOV,

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi mudiri, p.f.b.f.d.(PhD)., professor.

Annotatsiya. *Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablari musiqa darslarida bolalar folklor qo‘shiqlarini o‘rgatish mktodlaridan foydalanish va bu qo‘shiqlarning yoshlar tarbiysidagi o‘rni va unig ruhiy-hissiy ta’sir etishning asosiy vositalaridan biri, folklor qo‘shiqlarini tinglash orqali o‘quvchilarda musiqiy tasavvurlar shakllanishida psixologik omillarning ahamiyati, ajdodlarimizning o‘lmas asarlari, folklor qo‘shiqlarini o‘rgatishning ahamiyati xususida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *musiqa ta’limi, tarbiya, madaniy meros, ma’naviy tarbiya, tasavvur, folklor qo‘shiqlari, qadriyat, ritm, his-tuyg‘u.*

Jahon san‘atshunosligida Sharq musiqasi alohida sahifani tashkil etadi. Bu tizimda esa Buxoro musiqiy san‘ati merosi urf-odatlar, ko‘p asrlik tarix va milliy qadriyatga ega. Zamonaviy pedagogika ilmida shu san‘atni milliy qadriyatlar bilan bog‘liq holda o‘rganish dolzarflik kasb etadi. O‘zbek musiqasining qadriyatlarimizga uyg‘un holda rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilib, o‘zbek san‘ati, jumladan, Buxoro musiqa merosi xalqimizning urf-odatlar ko‘p asrlik an‘analari ruhida rivojlanmoqda.

Buxoro bolalar folklor qo‘shiqlarini va unda o‘zbek millati fazilatlarini ifoda etuvchi jihatlarning pedagogik nuqtai-nazardan o‘rganish fan oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Yosh avlodning musiqiy iste’dodi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida mamlakatimizning har bir shahar va tumanida musiqa va san‘at maktablarining faoliyat ko‘rsatishi bolalarning milliy qadriyatlarimizga, jumladan, o‘tmishdan milliy meros bo‘lib kelayotgan folklor qo‘shiqlariga to‘g‘ri munosabatni shakllantirishni nazarda tutadi.

Mamlakatimizda ma’naviy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga e‘tibor kuchayib, o‘sib kelayotgan yosh avlodni shu qadriyatlar ruhida har tomonlama etuk, ma’nan yuksak, komil inson qilib tarbiyalash pedagogika fani oldiga turgan muhim vazifalardan biriga aylandi. Shunga ko‘ra Buxoro musiqa